



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
PREZIDENTI HUZURIDAGI

IJTIMOIIY HIMOYA MILLIY AGENTLIGI
FARG'ONA VILOYATI BOSHQARMASI
UCHKO'PRIK TUMANI "INSON" IJTIMOIIY
XIZMATLAR MARKAZI

2-aprel 2025-yil.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 30-yanvardagi "Aholini ijtimoiy himoya qilish tizimini moliyalashtirish tartib-taomillarini takomillashtirish to'g'risida"gi Farmonida 2025-yil 1-apreldan "Saxovat va ko'mak" jamg'arnasidan foydalanish bo'yicha yangi tartib joriy etilishi belgilangan!

Har bir inson baxtli yashashga xaqli. Zero inson Qadri ulug'langan yurt albatta taraqqiy etadi va rivojlanadi.

Ijtimoiy himoya milliy agentligi Farg'ona viloyati boshqarmasi Uchko'priq tumani "Inson" Ijtimoiy xizmatlar markazi tomonidan ijtimoiy himoyaga muhtoj kam ta'minlangan oilalarga ijtimoiy yordam va ko'mak berildi. 2025 yil aholi tomonidan "Saxovat va ko'mak" jamg'armasi hisobidan 168 nafar fuqaroga 1-chorak mobaynida 260.9 mln so'm mablag'lar amaliy yordam sifatida ajratildi Jumladan Davolanish uchun 20 nafar fuqaroga 28.7 mln so'm, dori-darmon uchun 114 nafar fuqaroga 164.9 mln so'm, kiyim-kechak va zaruriy tovarlar uchun 14 nafar fuqaroga 18.4 mln so'm, oziq-ovqat maxsulotlari uchun 2 nafar fuqaroga 750 ming so'm, uy joylarini ta'mirlash uchun 14 nafar fuqaroga 47.4 mln so'm mablag'lar kam ta'minlangan fuqarolarga "Saxovat va ko'mak" jamg'arnasidan to'lab berildi. Kelgusida bunday amaliy ishlar natijasi yanada kengaytirilishi ko'zda tutilgan va istiqbol rejasi sifatida belgilab olingan.

Markaz direktori



A.A.Meliqo'ziyev